Ho Pek Leng, Mamuraxon Umaraliyeva,
Iqbolxon Abduraxmanova, Eldor Ochilov

Biologiya
7-sinf

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun mashq daftari

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

MAKTABGACHA VA
MAKTAB TA’LIMI
VAZIRLIGI

novda
edutainment

marshall cavendish
education

Toshkent – 2026

UO‘K: 573(575.3)
KBK 28.0ya72
B 70

Ho Pek Leng.
Biologiya. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun mashq daftari / H. P. Leng, M. T. Umaraliyeva, I. Y. Abduraxmanova, E. U. Ochilov. – Toshkent: “Novda Edutainment”, 2026. – 88 b.

© Marshall Cavendish Education.
Litsenziya asosida o‘zbek tiliga tarjima qilingan va mahalliylashtirilgan nashr.

Mualliflar: Ho Pek Leng, Mamuraxon Umaraliyeva, Iqbolxon Abduraxmanova, Eldor Ochilov.

Mahalliylashtirish bo‘yicha ishchi guruh:

Umaraliyeva Mamuraxon Tashxodjayevna, Abduraxmanova Iqbolxon Yulchiyevna, Ochilov Eldor Utkir o‘g‘li, Haytbayeva Sayyora Raximberganovna, Tog‘ayeva Gulchehra Olimjonovna, Xoliqnazarova Zebo Ibroximjon qizi.

Tarjimonlar (ingliz tilidan o‘zbek tiliga): Odilova Shaxzodaxon Shuxrat qizi, Xasanbayev Iskandarbek Dilmurod o‘g‘li.

Taqrizchilar: Saparov Kalandar Abdullayevich, Zayniyev Suxrob Islombek o‘g‘li, Fayziyev Vohid Bahromovich, Yodgarova Sohibjamol Xasanovna, Bo‘ronboyeva Muattar Yulchiyevna, Davlatova Marhabo Komilovna, Toshbekova Zulfiya Ikromovna.

Mahalliylashtirilgan ushbu mashq daftari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi xulosalari asosida takomillashtirildi.

Ushbu nashr mualliflik huquqi bilan himoyalangan. “Marshall Cavendish Education” tashkiloti hamda “Novda Edutainment” mas’uliyati cheklangan jamiyatining yozma ruxsatisiz mashq daftarining biron-bir qismini qayta chop etish mumkin emas.

O‘zbek tiliga tarjima qilingan va mahalliylashtirilgan nashr, 2026.

ISBN 978-9910-672-97-2

© “Marshall Cavendish Education”, 2026
© “Novda Edutainment”, 2026

MUNDARIJA

1-BOB. BIOLOGIYA FANIGA KIRISH 4

1.1-amaliy ish. Biologiya fanining kundalik hayotdagi ahamiyati 4
1.2-amaliy ish. Tadqiqot metodlari 5
1.3-amaliy ish. Laboratoriyada xavfsizlik qoidalari 7
1.4-amaliy ish. Laboratoriya jihozlari 8
Refleksiya 9
Mustahkamlash 10

2-BOB. TIRIK ORGANIZMLAR 12

2.1-amaliy ish. Tirik organizmlarga xos xususiyatlar 12
2.2-amaliy ish. Bir va ko‘p hujayrali organizmlar 13
2.3-amaliy ish. Mikroskopdan foydalanish 14
2.4-amaliy ish. Mikroskop yordamida o‘simlik hujayrasini kuzatish 17
2.5-amaliy ish. Mikroskop yordamida og‘iz epiteliysi hujayralarini o‘rganish 19
2.6-amaliy ish. Hujayradan organizmgacha 22
2.7-amaliy ish. Suyaklar va bo‘g‘imlar 24
2.8-amaliy ish. Antagonist muskullar 26
Refleksiya 27
Mustahkamlash 28

3-BOB. O‘SIMLIK VA HAYVONLAR KLASSIFIKATSIYASI 32

3.1-amaliy ish. Tirik organizmlar klassifikatsiyasi 32
3.2-amaliy ish. Organizmlarning bir yoki har xil turga mansubligini aniqlash 34
3.3-amaliy ish. Uy mushuklari bir-biridan qaysi xususiyatlari bilan farq qiladi? 36
3.4-amaliy ish. O‘simliklarni qanday klassifikatsiyalaymiz? 40
3.5-amaliy ish. Hayvonlarni qanday klassifikatsiyalaymiz? 42
3.6-amaliy ish. Mahalliy hududda uchraydigan hayvonlarni klassifikatsiyalash 44
Refleksiya 48
Mustahkamlash 49

4-BOB. MIKROORGANIZMLAR 52

4.1-amaliy ish. Atrofimizda bakteriyalar mavjudmi? 52
4.2-amaliy ish. Oziq-ovqat mahsulotlarining mog‘orlashiga sabab bo‘ladigan omillarni o‘rganish 55
4.3-amaliy ish. Yuqumli kasalliklarga qarshi emlash (vaksinatsiya) 57
4.4-amaliy ish. Qizamiq va unga qarshi emlash 58
Refleksiya 60
Mustahkamlash 61

5-BOB. ORGANIZMLARNING YASHASH MUHITI 64

5.1-amaliy ish. Oziq zanjirlari 64
5.2-amaliy ish. Introduksiyalangan turlar oziq zanjirlariga qanday ta’sir ko‘rsatadi? 66
5.3-amaliy ish. Inson faoliyatining atrof-muhitga ta’siri 68
5.4-amaliy ish. O‘rmonlarning qisqarishi 69
5.5-amaliy ish. Inson faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish 73
5.6-amaliy ish. Turli energiya manbalaridan elektr energiyasini olish 74
Refleksiya 76
Mustahkamlash 77

6-BOB. O‘SIMLIKLARDA FOTOSINTEZ VA MODDALAR TRANSPORTI 80

6.1-amaliy ish. Barglarda kraxmal mavjudligini aniqlash 80
6.2-amaliy ish. Fotosintez jarayonida karbonat angidridning sarflanishi 82
Refleksiya 84
Mustahkamlash 85

1-BOB

BIOLOGIYA FANIGA KIRISH

1.1-AMALIY ISH. BIOLOGIYA FANINING KUNDALIK HAYOTDAGI AHAMIYATI

MAQSAD: biologiya fani sohalarining kundalik hayotdagi ahamiyatini o‘rganish.

KO‘NIKMALAR: kuzatish, aniqlashtirish (identifikatsiya), ma’lumotlarni taqdim etish, xulosa chiqarish.

1 Quyidagi hodisalarni biologiyaning qaysi sohalari o‘rganadi?

O‘rganiladigan hodisa	Fan sohasi
Irsiyat va o‘zgaruvchanlik qonuniyatlari	
Mikroorganizmlarning xususiyatlari, xilma-xilligi	
Oqsil, nuklein kislota kabi biologik molekulalarning tuzilishi va funksiyalari	
Hujayraning tuzilishi va hayotiy jarayonlari	
Tirik organizmlarda sodir bo‘ladigan hayotiy jarayonlar	

2 Biologiya fani sohalari o‘rganadigan obyekt yoki hodisaga bittadan misol yozing.

T/r	Fan sohasi	O‘rganiladigan obyekt yoki hodisa
1	Anatomiya	
2	Biofizika	
3	Biotexnologiya	
4	Ekologiya	
5	Embriologiya	

3 Qo‘shimcha ma’lumot manbalaridan foydalanib, biologiya fanining ikkita zamonaviy sohasini yozing. Mazkur sohalar o‘rganadigan hodisalarga misol keltiring.

T/r	Biologiyaning zamonaviy sohalari	Sohalar o‘rganadigan hodisalar
1		
2		

1.2-AMALIY ISH. TADQIQOT METODLARI

MAQSAD: tadqiqot metodlarini o‘rganish.

KO‘NIKMALAR: identifikatsiya, ma’lumotlarni taqdim etish, xulosa chiqarish.

1 Jadvalning chap ustunida berilgan tadqiqot metodlari haqidagi ma’lumotlar asosida jadvalning o‘ng ustunini to‘ldiring.


Tadqiqot metodlari haqidagi ma’lumotlar	Tadqiqot metodlari
Ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash va ularni rasm, matn, jadval, diagramma yoki grafik ko‘rinishda taqdim etish	
Kuzatish va tajribalarda to‘plangan ma’lumotlar yuzasidan qaror qabul qilish	
Tabiiy obyekt yoki hodisalarni sezgi organlari yordamida idrok etish va jarayonga ta’sir etmagan holda natijalarni qayd etish	
Tadqiqot davomida o‘rganiladigan hodisani izohlash uchun dastlabki ilmiy taxminni ilgari surish	

2 Jadvalda berilgan ilmiy tadqiqot metodlarining mohiyatini qisqa va aniq ifodalang. Jadvalni to‘ldirishda quyi sinflarda o‘zlashtirgan bilimlaringizga tayanishingiz, qo‘shimcha manbalardan foydalanishingiz mumkin.

Tadqiqot metodlari	Mohiyati
Klassifikatsiyalash	
Qonuniyatni aniqlash	
Bashorat qilish	
Tajriba o‘tkazish	
Taqqoslash	
Modellashtirish	

3 Bir guruh olimlar turli organizmlarning fiziologik ko‘rsatkichlarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqot o‘tkazdilar. Jadvalda tadqiqot natijalari keltirilgan. Taqdim etilgan ma’lumotlarni ustunli diagramma va chiziqli grafikda ifoda eting.

Tirik organizmlarning tinch holatdagi fiziologik parametrlari (ko‘rsatkichlari)		
Organizmlar	**Yurakning qisqarish chastotasi (bir minutda yurak urish soni)**	**Nafas chastotasi (bir minutda nafas harakatlari soni)**
Afrika fili	28	12
Qo‘y	75	23
Odam	70	16
It	100	25
Dala sichqoni	320	75
O‘rdak	120	35
Kaltakesak	35	6
Kaptar	200	55



Ustunli diagramma

Chiziqli grafik

1.3-AMALIY ISH. LABORATORIYADA XAVFSIZLIK QOIDALARI

MAQSAD: laboratoriyada xavfsizlik qoidalari bilan tanishish.

KO‘NIKMALAR: kuzatish, identifikatsiya.

1 Jadvalda xavfsizlik belgilari keltirilgan. Belgi sizga qanday ma’lumot berishini yozing.

Belgi	Belgi nimani bildiradi?	Belgi	Belgi nimani bildiradi?
			
			
			